

Jahon va moliya bozorlariga oid sharh


12 may, 2025 yil



Bankni strategik rivojlantirish
departamenti

SQB, Ipoteka va NBU evrobondlarining daromadliligi (2025-yil 1 yanvar-12 may, Bloomberg ma'lumotlariga ko'ra)

UzSQB, Ipoteka banki va O'zmilliybank evrobondlarining daromadliligi, foizlarda




- 2024-yilning yozida SQB Londondagi fond birjasida xalqaro obligatsiyalarni joylashtirdi. Savdolarining birinchi kunida ularning daromadliligi 9,362%ni tashkil etdi.
- Mart oyida SQB obligatsiyalarining daromadliligi o'sishni boshladi. O'tgan hafta boshida daromadlilik 8,353% ga yetdi. Haftaning oxiriga kelib esa bu ko'rsatkich ko'tarildi va 8,437% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon daromadlilik 7,837% – 9,126% gacha o'zgarib turdi. Ushbu tendensiyalarga asoslangan holda, yil oxiriga kelib SQB evrobondlarining daromadliligi 7,8% – 9,5% atrofida bo'lishi mumkin.
- O'tgan hafta NBU evrobondlarining daromadliligi 7,995% darajasida bo'lgan. Haftaning yakunida daromadlilik ko'tarilib 8,009% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon bu ko'rsatkich 7,561% – 8,878% gacha o'zgarib turdi. Ayni vaqtdagi tendensiyalar asosida, bizning prognozimizga ko'ra, yil oxiriga kelib daromadlilik 7,3% – 8,9% gacha yetishi mumkin.
- O'tgan hafta Ipotekabank evrobondlarining daromadliligi o'sishni boshladi va 6,861% ga yetdi. Biroq, haftaning oxiriga kelib daromadlilik ko'tarilib, 6,979% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon daromadlilik 6,542% – 8,533% gacha o'zgarib turdi. Bizning prognozlarimizga ko'ra, yil oxiriga kelib daromadlilik 6,6% – 7,7% oralig'ida bo'lishi kutilmoqda.

SOFR va Euribor

AQSH va Yevropadagi banklararo kreditlar bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi


SOFR dinamikasi



Yil boshidan buyon SOFR stavkasi 4,49% atrofida barqaror bo'lib turmoqda. Haftaning boshida SOFR stavkasi 4,33% ni tashkil etdi, haftaning oxiriga kelib esa u biroz pasayib, 4,29% ga yetdi. Bu bozor likvidligi va monetar siyosatdagi kutilmalarning o'zgarishlarini ko'rsatadi. Federal rezervning foiz stavkalari bo'yicha pozitsiyasi SOFR stavkasi darajasini belgilashda davom etmoqda. Siyosiy o'zgarishlar kutilmalari stavkada kichik o'zgarishlarga olib kelishi mumkin.


Hozirgi vaqtda tahlilchilar yil oxiriga borib, SOFR stavkasi 3-3,5% gacha pasayishini prognoz qilmoqda, bu esa iqtisodiy faollikning sekinlashishi mumkinligi bilan bog'liq ravishda pul-kredit siyosati yumshatilishi bo'yicha kutilmalar bilan izohlanadi.

Динамика Euribor




Euribor kutilganidan tezroq pasaymoqda. Yevropa Markaziy banki foiz stavkasini tez sur'atlar bilan kamaytirishni davom ettirmoqda. Buning sabablaridan biri – inflyatsiyaning pasayishi. Yevropadagi ko'plab ipoteka kreditlari bog'langan Yevropa banklararo stavkasi (Euribor) joriy haftaning boshiga kelib 2,124% (3 oylik) va 2,111% (6 oylik) darajalariga tushdi. 2023-yilning oktyabr o'rtalarida foiz stavkasi 4% dan oshgan edi. Euribor stavkasining tarixdagi eng yuqori darajasi 2008-yilning qishida qayd etilgan bo'lib, u deyarli 5,5% ni tashkil etgan. Yil boshidan buyon maksimal ko'rsatkichlar 2,685% (6 oylik) va 2,789% (3 oylik) ni tashkil etdi.

Ko'pchilik ekspertlar bank sektorida ushbu stavkaning yanada pasayishini, xususan 2025-yil oxiriga kelib 2% ga tushishi mumkinligini prognoz qilmoqdalar.




O'zbekiston Respublikasi valyuta birjasidagi savdo hajmi, mln dollar



- ✓ O'tgan hafta valyuta birjasidagi savdo hajmi **700,2** million dollarni tashkil etdi, bu o'tgan haftaning savdo hajmiga nisbatan **192,2** million dollarga ko'proq.
- ✓ O'tgan haftaning boshida milliy valyutaning dollarga nisbatan maksimal kursi **12 938** so'mni tashkil etdi, keyin haftaning oxiriga kelib pasayib, **12 880** so'mga yetdi.
- ✓ Har yili so'm o'rtacha **3,5-4,5%** ga devalvatsiyaga uchraydi, 2023-yildan tashqari (**9,77%**), bu holat Rossiya valyutasi devalvatsiyasi eksport tushumlari kamayishi va mehnat migrantlarining pul o'tkazmalari bilan bog'liq edi. Joriy yil boshidan buyon devalvatsiya **0,09%** ni tashkil etdi. Yuqorida aytib o'tilgan omillarni inobatga olgan holda, yil oxiriga kelib kurs **13 420-13 550** so'm atrofida bo'lishi kutilmoqda.

Dollarning so'mga nisbatan almashinish kursi




12.05.2025 yil holatiga ko'ra, aholi uchun dollar sotib olishda eng foydali kurs **SQB**da qayd etilgan – **12 885** so'm. Boshqa banklarda esa kurs **12 890 – 12 970** so'm atrofida o'zgarib turdi.



Aholi uchun dollar sotish bo'yicha eng foydali kurs **BRB**da qayd etilgan – **12 900** so'm. Boshqa ko'plab banklarda esa kurs **12 880-12 820** so'm atrofida bo'lgan.

USD-RUB dinamikasi




- Rubl bayramlar o'rtasidagi sust savdolar davomida dollarga nisbatan qimmatlamoqda

Rubl, neft narxlarining pasayishi va yangi G'arb sanksiyalarining kiritilishi xavfi bo'lsa-da, dollarga nisbatan kuchaymoqda. Shu bilan birga, may bayramlaridan keyin va 9-mayga qarshi dam olish kunlariga yaqinlashayotganimiz sababli savdo hajmlari past darajada.

Rubl, asosan, geosiyosiy vaziyatga bog'liq bo'lib, uning og'irligi yoki yumshashi valyuta bozorida har qanday vaqtda volatilitetni oshirishi mumkin.


RUB-YUAN dinamikasi



- May oyining boshida yuan rublning rekordli kuchayishiga to'sqinlik qildi

Xitoy yuani rublga nisbatan, ikki haftalik beqaror dinamikadan so'ng, juda ishonchli ravishda o'sishni boshladi. 2025 yilning dastlabki to'rt oyida rubl jahon zaxira valyutalariga nisbatan deyarli chorak foizga kuchaygan bo'lsa-da, may oyining boshidan yuanning rublga nisbatan kuchli dinamikasi kuzatildi va u deyarli bir foizga qimmatlashdi. Neft narxlarining may oyi boshidan boshlab pasayishi rublga katta zarba bermagan bo'lsa-da, lekin sezilarli darajada ta'sir ko'rsatdi, shu bilan birga bu holat yuanning o'sishiga foydali ta'sir ko'rsatdi.

EUR-USD dinamikasi




- AQSh dollari bilan solishtirganda kichik o'sish

EUR/USD juftligi avvalgi uch haftalik minimumga tushganidan so'ng 1,1247 ga ko'tarildi.

Qayta tiklanish, AQSh dollarining biroz zaiflashishi fonida yuz berdi, chunki bozorlar AQSh va Xitoy o'rtasidagi muhim savdo muzokaralariga tayyorlanayotganda ehtiyotkorlikni oshirdi. AQSh Savdo vaziri Xovard Lyutnik Xitoyning taranglikni pasaytirish va foiz stavkalarini kamaytirish niyatida ekanligini bildirdi. Shuningdek, u kelgusi oyda AQSh ma'muriyati yangi savdo shartnomalarini e'lon qilishini ta'kidladi.

Asosiy xom ashyo tovarlari narxlariga oid tahlil

Oltin narxlar dinamikasi
(bir untsiya uchun,
AQSh dollarida)




➤ Oltinning narxlar AQSh va Xitoy o'rtasidagi savdo muzokaralari kutilyotganligi sababli pasaygan

Oltin narxi ikki savdo sessiyasida o'sganidan so'ng pasaydi, va spot narxi taxminan \$3324 atrofida tebranmoqda.

Investorlar AQSh va Xitoy o'rtasidagi savdo muzokaralarini kutmoqdalar — bu muzokaralar, Trampning keng miqyosli bojxona tariflarini joriy etganidan keyingi birinchi uchrashuv bo'ladi. Hozirgi vaqtda, hatto Hindiston va Pokiston o'rtasidagi to'qnashuvlarning kuchayishi ham ularning optimizmini to'xtatmayapti.

Oltin narxlarining oshishiga Trampning savdo va geosiyosiy siyosati atrofidagi noaniqlik, dunyo markaziy banklarining xaridlari va Xitoyda spekulativ talabning ortishi sabab bo'ldi.

Brent nefti narxlar dinamikasi
(bir barrel uchun,
AQSh dollarida)



➤ Jahon birjalarida neft narxlar oshdi.

Neft narxlar, Vashington va Pekin o'rtasidagi savdo muzokaralarining rivojlanishiga bo'lgan umidlar tufayli oshdi. Jumladan, Brent markali neft narxi bir barrel uchun 64 dollarga ko'tarildi. So'nggi marta shu darajada savdo qilingan sana 2025 yil 29-apreli edi.

AQShning savdo vakili Djeimisoun Griyer Xitoy bilan ikki kunlik muzokaralar "juda konstruktiv bo'ldi" va qanchalik tezda kelishuvga erishganimizni tushunish muhim, bu esa biz o'tamizdagi tafovutlar, ehtimol, o'ylagandek jiddiy bo'lmaganini ko'rsatadi deb ta'kidladi.

TTF gaz narxlar dinamikasi
(megavatt-soat uchun,
AQSh dollarida)



➤ Evropada gaz narxlar global SPG bozoridagi raqobat xavotirlari tufayli o'smoqda

Evropada tabiiy gaz narxlar oshdi, chunki osiyolik kompaniyalar SPG sotib olishni ko'paytirdi, shu bilan birga mavsumiy texnik xizmat ko'rsatish bozor sharoitlarini qiyinlashtirdi.

Avvalgi sessiyadagi pasayishdan so'ng, asosiy kontraktlar bo'yicha fuzyarlar o'sdi. E'tibor, Xitoy importchilari spott bozorda sotib olishni tiklaganidan keyin global SPG yetkazib berish bozoridagi raqobatga qaratilgan. Bu, bir necha oy davomida nisbatan passiv bo'lgan bozor uchun burilish nuqtasi bo'ldi.

Yangiliklar

Germaniyaning Commerzbank banki savdo

moliyalashtirish va ta'minot zanjirlarini boshqarish jarayonlarini avtomatlashtirish uchun IoT (internet-narsalar) texnologiyalarini qo'llash imkoniyatlarini o'rganmoqdalar.

ING Bank mobil ilovasiga ovozli boshqaruvni joriy etdi va mijozlarga ovozli buyruqlar yordamida bank operatsiyalarini bajarish imkonini beruvchi ovozli boshqaruv funksiyasini qo'shdi.

Braziliyaning Banco Bradesco banki mobil ilovasiga

yuzni va barmoq izlarini aniqlash texnologiyalarini integratsiya qilib, mijozlarga bank xizmatlariga xavfsiz va qulay kirish imkoniyatini yaratdi.

Niderlandiyalik ING Banki savdo moliyalashtirish sohasidagi jarayonlarni avtomatlashtirish uchun blokcheyn texnologiyalarini qo'llamoqda, bu esa xavflarni kamaytirish va tranzaksiyalar samaradorligini oshirishga yordam beradi.